



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI

2024-yil 9-oktabr

483-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi
“Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish
bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini
tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 631-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 631-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 631-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga, Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiya to‘g‘risidagi namunaviy nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin va tegishlilik bo‘yicha ijroga qaratilsin.

3. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha viloyat komissiyasi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman va shahar hokimlari joriy yilning 4-noyabriga qadar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman (shahar) komissiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Qobilov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 9-oktabrdagi
483-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan
nazorat qilish bo'yicha viloyat komissiyasi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha viloyat komissiyasining (keyingi o'rinlarda – viloyat komissiyasi) maqomi, vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Viloyat komissiyasi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasining (keyingi o'rinlarda - Davlat komissiyasi) hududlardagi faoliyatini tashkil etuvchi va ishini ta'minlovchi viloyat idoralararo kollegial organ hisoblanadi.

3. Viloyat komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Davlat komissiyasi qarorlari, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Viloyat komissiyasi Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari (keyingi o'rinlarda - tuman (shahar) komissiyalari), viloyat davlat organlari va tashkilotlarining sohaga oid faoliyatini o'rganib, tahlil qilib boradi.

5. Viloyat komissiyasi o'z faoliyatida Davlat komissiyasi oldida hisobdordir.

6. Viloyat komissiyasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega:

viloyat komissiyasining namunaviy tarkibi asosida viloyat komissiyasi tarkibini shakllantirish, hududda giyohvandlik vositalarining suiiste'moli va noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish;

tuman (shahar) kesimida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyatni chuqur o'rganib borish va natijasidan kelib chiqib, uni sog'lomlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi (keyingi o'rinlarda - Milliy markaz) tomonidan kiritilgan taqdimnomalar bo'yicha choralar ko'rish;

yillik ish rejalar, viloyat komissiyasi qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosidan kelib chiqib, viloyat davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari va xodimlarini hamda tuman (shahar) komissiyalari mas'ullarini rag'batlantirish yoki intizomiy chora qo'llash masalalarini ko'rib chiqish.

Viloyat komissiyasining o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari viloyat davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) komissiyalari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

7. Viloyat komissiyasi o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda viloyat davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) komissiyalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

2-bob. Viloyat komissiyasining vazifa va funksiyalari

8. Viloyat komissiyasi:

giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyatning asosiy omillari hamda tendensiyalarini aniqlash va prognoz qilish orqali, giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olishga qaratilgan yillik va qisqa muddatli ish rejalarini ishlab chiqadi va ijrosini nazorat qilib boradi;

hududdagi narkovaziyatni kompleks baholash va natijasi asosida vaziyatni sog'lomlashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

aholi orasida giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi bo'yicha tuman (shahar) kesimida samarali chora-tadbirlarni belgilaydi;

giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyatni tuman (shahar) kesimida ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jihatdan chuqur o'rganadi hamda natijasi bo'yicha tegishli tahliliy materiallar, taklif va tavsiyalar tayyorlaydi hamda Davlat komissiyasiga kiritadi;

hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) komissiyasining giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi va suiiste'moliga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiradi;

hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) komissiyasi mas'ul rahbarlarining ish rejalarini ijrosi yuzasidan hisobotlarini eshitadi va tanqidiy muhokama kilib boradi;

aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda "giyohvandlikka qarshi immunitet"ni, o'quvchi va talabalar orasida psixotrop moddalarni iste'mol qilishga murossasiz munosabatni shakllantirish choralari belgilaydi;

mahalla, qishloq, ovul, chegara hududlar va ta'lim muassasalarida giyohvandlik vositalarining suiiste'moli va noqonuniy aylanishining oldini olish, zaharvandlikni barvaqt aniqlash bo'yicha tizimli choralar ko'radi;

giyohvandlik vositalarining nazorat qilish samaradorligini oshirish yo'nalishida milliy va xalqaro konferensiyalar hamda simpoziumlarni o'tkazishga ko'maklashadi;

hududdagi narkologiya muassasalari va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga ko'maklashadi.

3-bob. Viloyat komissiyasining huquq va majburiyatlari

9. Hududiy komissiya o'ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) komissiyasidan narkovaziyatning holati, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga tegishli axborot, tahliliy va statistika ma'lumotlarini belgilangan tartibda bepul so'rab olish;

giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida hududlarda o'rganishlarni tashkil etish;

giyohdandlikning holati, giyohvandlik vositalarining qonuniy va noqonuniy muomalasiga oid faoliyatni o'rganishda mutaxassis jalb etish.

10. Hududiy komissiya:

o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli hamda o'z vaqtida bajarishi;

Davlat komissiyasi tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyat yuzasidan beriladigan topshiriqlar ijrosini ta'minlashi;

hududda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Davlat komissiyasiga hisobot kiritib borishi;

hududdagi narkovaziyatni sog'lomlashtirish bo'yicha choralarni samarali tashkil etish yuzasidan mahalliy budjet va budjetdan tashqari mablag'lar jalb etilishini ta'minlashi lozim.

4-bob. Viloyat komissiyasining faoliyatini tashkil etish

11. Hududiy komissiyasining namunaviy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

12. Viloyat komissiyasiga viloyat hokimi raislik qiladi.

Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari viloyat komissiyasi raisining o'rinbosari hisoblanadi.

Viloyat hokimligining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhi rahbari viloyat komissiyasi kotibi vazifasini bajaradi.

13. Viloyat komissiyasi o'z faoliyatini giyohvandlikning holati, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga oid masalalarning muhokamasiga bag'ishlangan majlislarni tizimli asosda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

14. Viloyat komissiyasi majlislari tegishli hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda tuman (shahar) komissiyasi mas'ul rahbarlari taklif etilgan holda zaruratga ko'ra, biroq har chorakda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

15. Majlisni viloyat komissiyasi raisi, u bo'lmaganda viloyat komissiyasi raisining o'rinbosari o'tkazadi.

16. Viloyat komissiyasining qarorlari viloyat komissiyasining majlisida ishtirok etadigan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

17. Viloyat komissiyasining qarorlari uning majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Viloyat komissiyasi majlisi bayonnomasiga uning barcha a'zolari tomonidan viza qo'yiladi, mas'ul kotib tomonidan imzolanadi, viloyat komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.